

O‘ZBEK MILLIY LIBOSLARNING ZAMONAVIY
MODA OLAMIDA O‘RNI

N.D. Yunusxodjayeva Doniyorovna

Namangan To‘qimachilik Sanoati Instituti

“Dizayn” kafedrasi assistenti

Yunusxodjayeva Xayrinisa Mallayevna

Toshkent to‘qimachilik va yengil

sanoat instituti “Kostyum dizayni” kafedrasi dosenti

Annotatsiya: O‘zbek milliy liboslari turlari haqida ma’lumotlar. Milliy zamonaviy liboslarini yaratilishi.

Kalit sozlar: Milliy liboslar, amaliy san’ati, ekselsior, gaz, batik, shoyi, xon atlas,

O‘zbek milliy liboslari xalq amaliy san’atining nodir qatlamini tashkil etadi. O‘zbek milliy liboslar o‘z kelib chiqish tarix va boy madaniy merosiga ega. O‘zbek xalq amaliy san’ati ko‘p asrlik an’analarnining saqlanib qolinishi hamda rivojlanishi natijasida ma’naviy-axloqiy tiklanishiga sabab bo‘ldi. Shu bois, bugungi kunda o‘zbek milliy qadriyatlar va urf-odatlar o‘rganilib tahlil qilinmoqda.

O‘zbek milliy liboslarning xalk amaliy san’atida o‘ziga xos ahamiyatiga ega. Bunda milliy liboslar yaxlit ansambl ko‘rinishida shakllanganligi milliy liboslar madaniy hayot tarzi va urf-odatlarni bilan cham barchas bog‘liqdir.

Milliy liboslarni o‘rganish va tadbiiq etishning maqsadi madaniy boy me’rosni o‘rganib, yanada boyitishdir. O‘zbek milliy liboslar asrlar davomida yaxlit san’at asari ko‘rinishida shakllangan. Bunday ko‘rinishidagi milliy liboslar yillar davomida ko‘pgina etnogroflarni o‘ziga jalb etib kelgan, xalq amaliy san’atining ahamiyati bugungi kunga kelib dolzarb masalalardan biriga aylandi va madaniy merosga katta ahamiyat berilmoqda.




Zamonaviy moda yo‘nalishida dizaynerlarning o‘zbek xalq amaliy san’atidan ijodiy manbaa sifatida ishlatilishini ko‘rishimiz mumkin. Buning eng asosiy sababi, bizning diyor o‘ziga xos tarxiy madaniy me’rosiga boy davlatdir. Xalq amaliy san’ati bugungi kunda mutaxassislar tadqiqot obyektiga aylandi.

Shundan kelib chiqan holda an’anaviy liboslar bichimi asosida o‘zbek milliy ayollar liboslarini to‘plamini yaratish va saqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega dolzarb muammoga aylandi.




O‘zbek milliy liboslarni o‘rganish va taxlil qilish jarayonida, tarixiy na’munalar, rasmlar va yozma man’baladan foydalanilgan. O‘zbek milliy liboslar bichimi, bosh kiyimi, poyabzal, xalk amaliy bezak turlari va shakllarini o‘rganish natijasida yangi texnologik yondashuvi orqali, an’anaviy kostyum elementlarining shakliy

to‘plamlarning tizimni ishlab chiqiladi va milliy liboslar yaratiladi. Bunda o‘zbek milliy liboslarning bichimi, milliy matosi, zargarlik buyumlaridan foydalanilib, o‘zbek milliy liboslar modellashtirildi va liboslar to‘plami yaratiladi.

O‘zbek milliy kostyumlarining elementlarini tizimlashtirish


№	Izoh	Namuna
1	Qizlar ko‘ylagini bo‘yin o‘mizi ko‘rinishi	
2	Kelin ko‘ylagining tik yoqa pir-pirak bilan ishlov berilgan (Farg‘ona v.)	
3	Tik yoqalarning ko‘rinishi	

4	Plankaga ishlov berilishining ko'rinishi	
5	Buxoro va Samarqand viloyatlariga xos yoqa turlarining ko'rinishi	
6	Surxondaryo, Qashqadaryo va Nur-ota viloyati yoqa turlari	
7	Yeng o'mizi va yeng ko'rinishining turlari	

		
<p>8</p>	<p>Ko‘ylakning etak qismi ko‘rinishlari</p>	
<p>9</p>	<p>Кокетка кўйлагининг ёқа кўринишлари</p>	

Ayollar milliy liboslani tikishda matoning kengligi olinib, yelka qismida

taxlamalar yordamida shakl xosil qilindi. Libosning yon qismiga mursak ko‘rinishida mato qo‘shilgan. Ayollar milliy liboslarni loyixasini yaratishda, o‘zbek ananaviy bichimi asos qilib olindi va shu asos xar hil ko‘rinishlarda modellashtirildi. O‘zbek milliy liboslarda tik yoqa, planka va pir-pirak elementlari ishlatildi. (rasm1)



Rasm 1

O‘zbek an’anaviy liboslar bichimi yaratilgan chizmasi (a,b). Asos bichimni turli xil kurinishga kelitilib modellashtirilgani (v, g, d, e).

Liboslar to‘plamini yaratilishida ipak tolasidan to‘qilgan matodan foydanildi. Shoyi matosi to‘qilishi va iplari aralashmasidan kelib chiqan xolda turlarga bo‘linadi. Tanda va arqoq ipak tolali bo‘lsa shoyi, xon atlas;

tanda ipak tolali va arqoq ip paxta aralashmasidan to‘qilgan bo‘lsa adras; duxoba matosidek tukli ko‘rinishga ega bo‘lgan mato baxmal, bu mato ipak tola yoki paxta aralashmasidan to‘qilishi mumkin.

To‘qilishi jixatidan shiyi matosidan farq qiladigan ipakning eng ingichka tolasidan to‘qilgan gazlama “ekselsior” deb ataladi. Bu gazlama juda mayin va pishiq to‘qilishi bilan ajralib turadi. Ekselsior matosining eni 90-80 sm, xom va ishlov berilmagan mato shaffof va qattiq ko‘rinishiga ega. Ishlov berish jarayonida soda

qorishmasini suvga solib 45-60 daqiqa qaynatiladi. Qaynatish jarayonida kalsinirovanniy soda qorishmasini miqdorini ko‘paytirish yoki kamaytirish natijasida ekselsior ko‘rinishini g‘ijimlik yoki qalinlik fakturasini xosil qilish mumkin. Soda qorishmasi qaynash jarayonida kamroq qo‘shilsa, u holda ekselsior ozgina yumshaydi, mayin mato shakliga kelmaydi, bunday matoni “gaz” deb ataladi. Ekselsior tabiiy tollardan to‘qilganli uchun tabiiy bo‘yqlar yordamida bo‘yaladi. Rang berish jarayonida maxsus dasgohlarga qotirilib, moy qalamlar bilan rasm nusxasi tushiriladi. Batikning matoga gul tushurish yo‘li bilan bajarilgan.





Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. . O‘zbek xalq amliy-bezak san’ti: Bezakli albom / Tuzuvchi-muallif SH.K. Shoyoqubov; ishchi gruh, Z. Isajonova va boshq.: tarj.: Z. Shohasanova, I. Maslekova.- T.: “O‘zbekiston”, 2009.- 136 b.
2. N.Sodiqova. O‘zbek milliy kiyimlari (XIX-XX asrlar) , Toshkent 2003. Sharq.
3. T.A. Abdullayev, S.A. Xasanova . Odejda uzbekov (19-nachalo 20v). Tashkent,1978.
5. Alibekova M. I., Parmon F. M. Elementi informatsionnoy bazi kompozitsionno-konstruktorskix osobennostey Dagestanskogo natsionalnogo kostyuma // Vestn. MGUDT. 2005.